



IQBOL MIRZONING “UYG‘ONISH” SHE’RIDA TABIAT TASVIRINING BADIY-FALSAFIY TAHLILI

Murodillayeva Madina Otabek qizi

Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15447978>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2025 yil

Ma’qullandi: 15-May 2025 yil

Nashr qilindi: 17-May 2025 yil

KEYWORDS

Iqbol Mirzo, “Uyg‘onish”, tabiat tasviri, badiiy-falsafiy tahlil, ruhiy uyg‘onish, qush obrazi, kahkashon, metafora, zamonaviy o‘zbek she’riyati, poetik tafakkur.

ABSTRACT

Ushbu maqolada, Iqbol Mirzoning “Uyg‘onish” nomli she’riy asarga ko‘ra tabiatning tasviriy va falsafiy tahlili yuritilib, she’rda inson ruhiyati va tabiat holati o‘ziga xos o‘zaro bog‘liqlik, uyg‘unlik va metafizik birlik obrazlar orqali yoritiladi. Oy, qush, qanot, Kahkashon kabi tabiat obrazlari orqali insonning ichki uyg‘onishi, ruhiy yuksalishi va borliq bilan singish holatlari jismoniy-falsafiy dunyoda ochib beriladi. Maqolada shoirning poetik mahorati, materiallarni qo‘llashdagi o‘ziga xosligi, zamonaviy she’riyatda tabiatni ifodalashdagi yangicha uslubi chuqur tahlil qiladi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyoti tarixida chuqur falsafiy mazmun, poetik mushohada va ma’naviy izlanishlarga boy she’riyat namunalarini yaratgan shoirlar orasida Iqbol Mirzo alohida o‘rin egallaydi. Uning she’riyatida inson va tabiat o‘rtasidagi munosabat, ruhiy uyg‘onish, borliqning sirli mohiyati va hayot falsafasi badiiy tasvir orqali ifodalanadi. “Uyg‘onish” nomli she’rda esa tabiat obrazlari orqali insonning ruhiy kechinmalari, ichki uyg‘onishi, yashashga bo‘lgan ishtiyoqi va mavjudot bilan uyg‘unlik holati yuqori badiiy saviyada ifodalangan. Ushbu maqolada Iqbol Mirzoning ushbu she’ri asosida tabiat tasvirining badiiy-falsafiy tahlili amalga oshiriladi. She’rda boshlang‘ich ruhiy holat va tabiat manzarasi quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

Xuvillagan dunyo, xuvillagan qalb,

Na quvonch, na rayhon, na g‘am, na yalpiz...

Ushbu misralarda tabiat holati va inson ruhiyatidagi bo‘shliq o‘zaro uyg‘un holda tasvirlanadi. "Xuvillagan dunyo" va "xuvillagan qalb" tasvirlari bir-birini aks ettiruvchi, parallel obrazlar bo‘lib, bu orqali insonning ichki iztiroblari va bo‘shliqlik hissi tashqi tabiat manzarasi orqali obrazlantirilgan. Bu uslub romantik poetika an‘analariga yaqin bo‘lib, tabiatga antropomorfik yondashuvni ko‘rsatadi.

Yalpiz va rayhon kabi o‘simliklar muayyan ramziy ma’noga ega. Rayhon Sharq adabiyotida poklik, ma’naviy yuksaklik timsoli bo‘lsa, yalpiz jonlantiruvchi, yangilovchi kuch sifatida qaraladi. Ularning yo‘qligi esa lirik qahramonning ichki ma’naviy holatida to‘kislikning yo‘qligini, izlanishlar, beqarorlikni ifodalaydi. Oy bilan tilashish misrasida ichki uyg‘onish boshlanishidir.

Bir kuni oy bilan tillasha turib,

His qildim yuragim og‘irligini.

Bu satrlar orqali shoir inson va tabiat ayniqsa osmon jismlari o'rtasidagi mushohadaviy mulohazalarni tasvirlaydi. Oy bilan tillashish bu nafaqat metafora, balki insonning o'zini anglashga bo'lgan intilishi, hayotiy falsafa bilan to'qnashuvi sifatida talqin etiladi. Bu holatda oy ko'pincha ilohiylik, yo'l ko'rsatkich, mushohada manbai sifatida qaraladi. Yurakdagi og'irlikni his etish esa o'zgarishlar arafasida turgan insonning o'zini anglashiga ishora.

Bu misraning boshlanishi uyg'onishning ilk bosqichidir. Insonning "koklam seliday" gupurishi esa hayotiy energiyaning, yashash istagining kuchayishini anglatadi. Tabiat bilan uyg'unlik va ruhiy yuksalish tasviri ko'zga tashlanadi.

Elkamda elkanday qanot barq urdi,

Bir go'zal qush bo'ldim ertakdagiday.

Shoir bu yerda qush obrazini yaratadi. Qush qadimdan ozodlik, yuksalish, ruhiy erkinlik timsoli hisoblanadi. Elkada paydo bo'lgan qanot va ertakdagi qushga aylanish obrazlari ruhiy uyg'onishning intensiv bosqichini bildiradi. Qanot bu ozodlik, shaxsiy yuksalish, ilohiylikka yaqinlashish ramzidir. Tabiat bilan uyg'unlashgan inson endi go'yo koinot bilan bir butun mavjudotga aylanadi.

Yovvoyi yoshlikda azot hayqirdim

Titradi koinot etaklari-da!

Yovvoyi yoshlik obrazida insonning to'g'ri, samimiy, cheklovlarisiz borligi ifodalangan. Azot hayqirig'i ruhiy uyg'onish bilan bog'liq kuchli ichki portlash, tashqi ifoda topgan holatdir. Koinotning titrashi bu uyg'onishning samoviy miqyosga chiqib, mutlaq borliqni larzaga solganligini bildiradi. Kosmik tabiat obrazlari va metafizik uyg'unlik.

Kahkashon-shiddatim qoldirgan oq iz.

Senning olamingga boryapman, kutgin,

Osmonni quchoqlab yotgan g'amgin qiz!

Kahkashon – galaktika, koinot obrazidir. Undagi oq iz bu insonning mavjudot sifatida borlikda qoldirgan izidir. Shoir bu yerda inson hayoti va mavjudotini cheksiz fazo bilan birlashtiradi. Ruhiy uyg'onish orqali inson koinot miqyosida iz qoldiradi, bu o'ta yuksak falsafiy darajadagi mushohadadir. "G'amgin qiz" esa insoniyatning bir qismi, yoki lirik qahramonning ilhom manbai bo'lishi mumkin. Tabiat bilan bo'lgan uyg'unlik, insoniyatga, muhabbatga va umidga intilish bu misralarda badiiy jihatdan mukammal tarzda berilgan.

She'rda ko'plab badiiy tasvir vositalari epitet, metafora, personifikatsiya, parallelizm, simvolik obrazlar ishlatilgan. Misol uchun, "yovvoyi yoshlik", "xuvillagan dunyo", "qanot barq urdi", "Kahkashon oq iz" kabi tasvirlar she'rning poetik kuchini oshiradi. Ayniqsa, tabiatdagi harakatlar orqali ruhiy holat ifodalanishi bu Iqbol Mirzoning poetik mahoratini ko'rsatadi. Shuningdek, she'rda ritm va ohang muvozanatiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Tovushlar, urg'ular, ichki musiqiylik ruhiy holatning ohangiga mos tushadi. Tabiatni falsafiy idrok qilish bu "Uyg'onish" she'rida tabiat tasviri sof estetik go'zallikni emas, balki ma'naviy-falsafiy uyg'unlikni ifodalaydi. Shoir tabiatni faqat fon sifatida emas, balki ruhiy o'zgarishlar, ongli yangilanish, ilohiy uyg'onish jarayonining to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchisi sifatida tasvirlaydi. Bu jihatdan she'r Sufiy adabiyoti an'analari ham yaqin borliqni bir butun idrok qilish, inson va tabiatni ajralmas mavjudot sifatida ko'rish g'oyalari she'rga singdirilgan.

Xulosa

Iqbol Mirzoning "Uyg'onish" she'ri o'zbek zamonaviy she'riyatida tabiat tasviri orqali insonning ruhiy uyg'onishini ifodalashda yorqin namuna bo'lib xizmat qiladi. She'rda tabiat

obrazlari shunchaki tasvir sifatida emas, balki chuqur ma'naviy-falsafiy ramzlar sifatida ishlatiladi. Oy, qush, qanot, Kahkashon kabi obrazlar orqali insonning ichki kechinmalari, ma'naviy yuksalishi va borliqqa singib ketishi tasvirlanadi. Bu orqali shoir inson va tabiat, ruh va borliq, ichki va tashqi olam uyg'unligini badiiy-falsafiy darajada ochib beradi. She'rda ishlatilgan badiiy vositalar, ramzlar, falsafiy g'oyalar Iqbol Mirzoning chuqur poetik tafakkurini va tabiatga bo'lgan noan'anaviy yondashuvini ko'rsatadi. Uning she'riyati zamonaviy o'zbek adabiyotida tabiatni inson ichki olami bilan uyg'un holda ko'rsata olgan yuksak badiiy ifoda namunalaridandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Iqbol Mirzo. She'rlar to'plami. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2021.
2. Qodirov, A. Zamonaviy o'zbek she'riyati: tahlil va tadqiq. – Toshkent: "Akademnashr", 2015.
3. Safarov, Sh. Adabiy tafakkur va tabiat obrazlari. – Toshkent: Akademiya, 2020.

